

ANDERSENING BOLALARGA XOS ASARLARINING O‘QUVCHILAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Soliyeva Sarvinozxon Azizjon qizi

Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hans Kristian Andersen ijodida bolalarning buyuk olamiga sayohat qilinadi. Unda bolalar dunyosi, ularning beqiyos tafakkurlari yoritiladi. Asarlari bilan bolalar dunyoqarashini shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tafakkur, bolalik, yaxshilik, beg'uborlik, soddalik, adolat, ezgulik, Xalqaro Kengash, medal.

Daniyaning jahonga mashhur ertakchisi Hans Andersen 1805 yilda Odens shahrida dunyoga keldi. Bolaning otasi kavushdo'z, onasi esa kir yuvuvchi bo'lib ishlar edi. Shuning uchun Hans kambag'allar maktabiga o'qishga kiradi. Oradan uncha ko'p vaqt o'tmay, ularning oilasi Kopengagenga ko'chadi.

Bolaning yashash sharoiti va o'qishi bu yerda ancha-muncha yaxshi bo'ladi. Bo'lajak yozuvchi 1823-yilda Slagels maktabiga o'qishga kiradi, undan keyin Xelsingyorda ta'lim oladi. 1828 yilda esa Kopengagen universitetiga o'qishga kiradi. Andersenning ijodi 20-yillarning boshlaridan boshlanadi. U dastlab lirik she'rlar, roman, drama, yo'l ocherklari, biografik etudlar yaratadi. Uning ijodi ko'p qirrali va rang-barangdir. Ayniqsa, tarix va ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun maroqlidir. “Ertaklar” (1835-1855), “Yangi ertaklar” (1843-1872) va boshqa kitoblari Andersenning nomini juda mashhur qildi va uni jahonga tanitdi. Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalandi, ularning orzu-umidlarini qog'ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi.

Shuning uchun Andersen yaratgan ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo'lish bilan birga, o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ham ega. U o'z ertaklarida o'ziga xos xarakterni topib, mukammallashtiradi. Uning bir qator ertaklarida voqelikning yorqin aks ettirilishi kitobxon tahsiniga sazovor bo'ladi. Hans Andersen bolalar haqidagi hikoyalarni aytib berish uchun romantizm uslubidan foydalangan birinchi muallif hisoblanadi. Buni biz ularga aytayotgan uslubda, u mayda va kambag'allar haqida muloyimlik bilan, kuchli va kuchsizlarning to'qnashuvlarida, uslubga xos insonparvarlik saxovati va xayriya ruhida ko'rmoqdamiz. Andersen ertaklarida ko'pincha bosh qahramon shahzoda ham emas, malika ham emas, balki oddiy mehnatkash xalqdir. Ular o'zlarining samarali mehnati, aql, idroki, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo'ladilar. Uning “Qo'ng'iroqli girdob”,

“Kolbasa sixidan sho'rva”, “Go,,ng qo,,ng,,iz” va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Ertakchining “Qo,,ng,,iroqli girdob” asarini olib ko,,raylik. Unda asrlar mobaynida ezilgan, og'ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o'z xojasiga qarshi turishi kitobxonni quvontiradi.

“Bolalar gurungi” asarida avvaldan hech kim taqdirini, kichkintoy o,,sib ulg'aygach kim bo,,lib yetishishini bilishi mumkin emasligini, bu ko,,proq o'sha bolaning o'ziga, intilishiga, kattalarning ibratomuz pand-nasihatlariga quloq solishga bog,,liq ekanligini oqiiymiz. Shohona qasrga to'plangan bir to'da bashang kiyingan aslzoda bolakaylar qasrni to'ldirib maqtanishar, otaonalarining hisobsiz boyliklari bilan quvonishar, kelajakda ota-onalaridan ham badavlatroq bo,,lish uchun harakat qilishlarini kibor bilan ta'kidlashar edilar. Bu boy-badavlat bolalarning bir-birlariga gap bermay maqtanishlarini yirtiq-yamoq kiyim kiyib olgan bir kambag,,al bola tinglab, xo,,rsinar, “bularga yetish bizga yo'l bo'lsin”, deb qo'yar edi, ozgicha. Yillar o'tib o'sha juldur kiyimli bola

yaxshi o'qib, rassom bo,,lib yetishdi, mamlakatda eng boy odamlardan biriga aylandi, o'ziga munosib bir qasr qurdirdi. Qasr hamda uning ichidagi xazinani ko'rishni hamma istardi.

Ertakchining “No'xat ustidagi malika”asari ham yosh kitobxonning kulgusini qistadi, ham tannoz malikaga qahr-g,,azabini qo'zg'atadi. Bir shahzoda haqiqiy malikaga uylanish uchun butun yer yuzini, shahar-u qishloqlarni qidirib hech qayerdan haqiqiy malikani topa olmaydi. Hafsalasi pir bo'lgan, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan shahzoda qasrga qaytadi. Kunlardan bir kun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan mo'jiza yuz beradi: “Bir oqshom havo aynigandan aynibdi:

shundoq chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduros solibdi, yomg,,ir chunonam chelaklab quyib beribdiki, dahshatning o,,zginasi. To,,satdan qasr darvozasi taqillab qoldi. Keksa qirol borib darvozini ochibdi. Darvozada malika turardi.

Yo qudratingdan, uni nimaga o,,xshatish mumkin! Suv malikaning sochlari, ko'ylaklaridan sharillab oqib, to,,ppa-to,,g,,ri boshmoqlarining uchlariga, tovonlariga tushardi, u bo,,lsa pinagini buzmay,”Men haqiqiy malikaning xuddi o'ziman, derdi” . Malikani sinab ko,,rish ishlari ham g,,alati bo,,ldi. Tunda qirq qavat ko'rpa ostiga no,,xatni yashirib joy solib berdilar. Tannoz oqbilak qiz ertalab o'rnidan turar ekan, “qanday uxlab turdingiz?” deyilgan savolga nolish, ichki dard bilan javob berdi: “Ey juda yomon!-deydi u. –Ko'zimni yummadim desam ham bo,,ladi. Men qandaydir qattiq narsaning ustida yotdim, butun a'zoyi badanim ko'tarib ketdi. Naqadar dahshat!” SHahzoda qizning haqiqiy malika ekanligini bilib, unga uylanadi. Bolalar, odatda, hayvonlar,parrandalar, hashoratlar haqidagi ertaklarni sevib o'qiydilar. Andersen yaratgan ertaklarning juda ko'pchiligi ana shu mavzuni qamrab olishi bilan ham xarakterlidir. “Dyumovichka”, “Irkit o'rdakcha”, “Botqoqlik shohining qizi”, “Baqa”,

“Burga bilan professor” singari ertaklari o'zbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib ketgan.

Shu o'rinda yozuvchining “Yovuz podsho” afsona ertagini olaylik, bu ertak orqali kitobxonlarga manmanlik, kibr-havoga berilish, dunyoni o'z izmiga bo'ysundirishdek qabih niyatli shaxsning oqibat jazoga muqarrarligini ajoyib syujetlarda aks ettiradi. Ertakni o'qigan kitobxon, yovuzlik va ezgulik, adolat va razolatning hayotiy ko'rinishlarini darrov ilg'ab oladi. Ertak yurt podshosi va oddiy xalq personajlaridan iborat bo'lib, butun dunyoni, insonlar va jonzot-u borliqning taqdirini o'ziga faqat o'zigagina bo'ysunishga qaratilgan voqealarni so'zlaydi. Oddiy inson butun borliqni yaratuvchisining kuch-qudrati va oddiy, mo'jazgina bir jonzot orqali abgor holatga tushganligini badiiy obrazlarda kitobxon qalbiga yetib borishiga va mulohaza yuritishiga undaydi. Ushbu afsona - ertakning tarbiya motivi ham: adolat, ezgulik va halqparvarlik, insoniylikdir. Shu o'rinda yozuvchi ertaklari barchasi tarbiyaviyligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari yozuvchining “Ko'hna cherkov qo'ng'irog'i”, “Driada”, “Parrandaboqar Greytaning ajdodlari” kabi ertaklarida yaxshilikning, albatta, yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi orqali kitobxonga saxovati va xayriya ruhini singdirish mumkin. Uning hikoyalari orasida hayoliy fantastik dunyoda sodir bo'ladiganlar ko'p bo'lsa-da, aksariyati kundalik hayotda qolib ketgan. Andersen ufqsiz azob-uqubat bilan bir qatorda uyushgan mo'l-ko'lchilikning ziddiyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega edi....

Shu sababli, bu bolalarga hikoyalar aytib berish va ularga o'zini o'zi tashkil etayotgan yangi jamiyat tomonidan qabul qilinishi kerak bo'lgan xulq-atvor modellarini taklif qilish uchun birinchi ishonchli romantik ovoz edi. U ko'rsatgan mehrda, hikoyalarda, kichkintoylar va kam ta'minlanganlar uchun biz romantizmga xos insonparvarlik saxovati va xayriya ruhini topamiz. Andersen qudratli va himoyalanmagan, kuchli va kuchsizlar o'rtasidagi doimiy qarama-qarshilikda nafaqat ekspluatatsiya qiluvchi kuchning adolatsizligini, balki ekspluatatsiya qilinganlarning insoniy ustunligini ko'rsatib, biz barcha insonlarning huquqlarga ega bo'lishi kerakligini chuqur anglaymiz. U butun dunyo bo'ylab bolalar adabiyotining kashfiyotchisi hisoblanadi.

Tug'ilgan kuniga qarab, 2-aprel Xalqaro bolalar kitobi kuni. Bolalar adabiyotidagi eng muhim xalqaro mukofotni “Xalqaro kitoblar kitobi” bo'yicha Xalqaro kengash - IBBY beradi. Ushbu mukofot Hans Kristian Andersen medali bilan ifodalanadi. 1982-yilda Lygia Bojunga ushbu medal bilan taqdirlangan birinchi Braziliya vakili bo'ldi. Bugungi kunda yozuvchining ijodi yosh kitobxonlar tomonidan kata qiziqish bilan mutolaa qilib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ummatov, M.Boyxonova. Namangan haqiqati.-2022.-17 sent.-17-18-19 sonlari-B.3
2. Yusupova D. O,,zbek mumtoz va milliy uyg,,onish adabiyoti. O,,quv qo,,llanma. - T.: TAMADDUN, 2016.
3. Komilov N. Maʼnolar olamiga safar. - T.:TAMADDUN, 2016.
4. Sh.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: Oʻzbekiston, 2017.
5. www.ziyonet.uz
6. www.ertak.uz